Zayniyeva Yulduz Faxriddinovna (Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU tayanch doktorantura talabasi; zayniyevayulduz1@gmail.com)

“BOBURNOMA”DAGI “AHLI” SO‘ZI BILAN IFODALANILGAN IZOFALI BIRIKMALARNING INGLIZCHA TARJIMALARI TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Boburnoma asarida ishlatilgan “ahli” bilan bog‘langan izofiy birikmalar tahlil qilingan. Jumladan, “ahli fazl”, “ahli hunar”, “ahli kuffor” va “ahli irtidod” kabi atamalarning semantik qirralari va ularning Jon Leyden-Erskin, Susana Beverij va U.Tekston tarjimalaridagi inglizcha talqinlari o‘rganilgan. Tahlil davomida ushbu iboralarning tarjimada ma’no va kontekst jihatidan qanday o‘zgarishlarga uchragani, tarjimonlarning yondashuvlari va ularning madaniy hamda diniy atamalarni aks ettirish usullari qiyosiy, tahliliy baholangan. Maqola “Boburnoma”dagi til va madaniy atamalarni tarjima qilishning o‘ziga xos jihatlarini ochib berishga qaratilgan bo‘lib, ilmiy tadqiqot va tarjima sohasiga oid muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar*: “Boburnoma”, ahli fazl, ahli hunar, ahli kuffor, ahli irtidod, tarjimalar tahlili.*

Зайниева Юлдуз Фахриддиновна (аспирант Ташкентского государственного университета Узбекского языка и литературы имени Алишера Навои; zayniyevayulduz1@gmail.com)

АНАЛИЗ АНГЛИЙСКИХ ПЕРЕВОДОВ ИЗАФЕТНЫХ КОНСТРУКЦИЙ С «АХЛИ» В «БАБУРНАМЕ»

Аннотация. *В данной статье анализируются изафетные конструкции, связанные с термином «ахли» в «Бабурнаме». В частности, рассматриваются семантические нюансы таких выражений, как «ахли фазл», «ахли хунар», «ахли куффор» и «ахли иртидод», а также их английские переводы в работах Джона Лейдена-Эрскина, Сузана Бевериджа и Уилера Текстона. Анализ охватывает изменения значения и контекста этих фраз в процессе перевода, подходы переводчиков, а также их методы передачи культурных и религиозных терминов. Цель статьи – выявить особенности перевода лингвистических и культурных выражений в «Бабурнаме», что делает её ценным ресурсом для научных исследований и переводоведения.*

Ключевые слова*: «Бабурнаме», аҳли фазл, аҳли ҳунар, аҳли куффор, аҳли иртидод, анализ перевода.*

Yulduz Faxriddinovna Zaynieva (PhD Student at Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navai; zayniyevayulduz1@gmail.com)

ANALYSIS OF ENGLISH TRANSLATIONS OF IZAFA CONSTRUCTIONS WITH “AHLI” IN “BABURNAME”

Annotation. *This article analyzes the genitive constructions associated with “ahli” in the Baburnama. Specifically, it examines the semantic nuances of terms such as “ahli fazl”, “ahli hunar”, “ahli kuffor”, and “ahli irtidod”, and their English renderings in the translations by Jon Leyden-Erskine, Susan Beveridge, and W.Tackston. The analysis explores how these phrases have undergone changes in meaning and context during translation, the translators’ approaches, and their methods of conveying cultural and religious terms. The article aims to shed light on the unique aspects of translating linguistic and cultural expressions in “Baburnama”, serving as a valuable resource for scholarly research and translation studies.*

Key words: *“Baburname”, ahli fazl, ahli hunar, ahli kuffor, ahli irtidod, translation analysis.*

Bobur, o‘zining mashhur asari “Boburnoma” orqali nafaqat tarixiy voqealar va o‘z davrining muhim tafsilotlarini yoritib bergan, balki o‘sha davrning til boyligini va madaniyatini ham aks ettirgan. Mazkur asar o‘zbek adabiy tili rivojida muhim o‘rin egallagan va boy leksik tarkibi bilan diqqatga sazovordir. Unda ko‘plab izofali birikmalar, xususan, “ahl” so‘zi ishtirok etgan iboralar uchraydi. “Ahl” so‘zi, odatda, ma’lum bir kasb-kor, guruh yoki ijtimoiy qatlamga mansublikni ifodalash uchun ishlatiladi: ahli tab’– tab’ ahli, ahli nag‘ma, ahli soz – soz ahli, ahli fazl – fazl ahli, ahli she’r – she’r ahli, ahli hunar – hunar ahli, ahli islom – islom ahli, ahli kufr –kufr ahli, ahli kuffor – kofirlar ahli, ahli irtidod – chekinuvchilar ahli, murtadlar kabi. “Ahl” so‘zi, aslida, arabcha qarindoshlar; oila a’zolari; bir xonadonga mansub kishilar; ma’lum soha, kasb egalari, xalq, xullas, biror-bir belgi asosida birlashgan shaxslar doirasini bildiradi.[1] Y.Zulfiyevning ta’kidlashicha, ahl so‘zi XV–XIX asrlarda yaratilgan badiiy asarlarda ancha keng qo‘llangan. Hozirgi kunda bu so‘z ko‘proq she’riy uslubga xos bo‘lib, ilmiy uslubda, sheva va jonli tilda juda kam ishlatiladi. O‘z-

[1] Баранов Х. Арабско-руский словарь. Москва, 1985, с. 48.

bek tilida, ayniqsa, uning hozirgi taraqqiyot bosqichida ahl so‘zi leksik birlik sifatida deyarli mustaqil qo‘llanilmaydi.[1]

M.Amonov asarda uchraydigan ayrim so‘z va izofali birikmalarni hozirgi o‘quvchi lug‘at yordamisiz tushunmaydi deb aytib o‘tadi.[2] Masalan: *Ahli fazl va ahli hunarg‘a Alisherbekcha murabbiy va muqavviy ma’lum emaskim, hargiz paydo bo‘lmish bo‘lg‘ay* (BN;154-b.).

Bobur Alisher Navoiy davrida ijod qilgan Qul Muhammad Udiyga ta’rif berib: g‘ijjakni ham xo‘b cholur edi. G‘ijjakka bu uch qil taqti. Ahli nag‘madin va ahli sozdin hech kim muncha ko‘p va xo‘p peshrav bog‘lag‘on emastur (BN;164-b.).

“Boburnoma”da tarkibida ahl so‘zi bo‘lgan jami 12 ta izofali birikma uchraydi.[3] Biroq X.Nazarova tomonidan nashr ettirilgan “Zahiriddin Muhammad Bobir asarlari uchun qisqacha lug‘at”da ahl so‘zi ishtirokidagi faqat 2 ta izofiy birikma ma’nosi berilgan: ahli nag‘ma, ahli tab’.[4] Ahl so‘zi ishtirok etgan qolgan 10 ta izofiy birikmaning izohi mazkur lug‘atda berilmagan. F.Is’hoqovning “Boburnoma” uchun qisqacha izohli lug‘at”ida ham yuqoridagi ikkita izofiy birikmaning ma’nolari izohlangan, xolos.[5] Alisher Navoiy asarlarida esa mazkur so‘z ishtirok etgan shaxsni bildiruvchi izofiy birikmalar 158 tani tashkil etadi.

Maqolada “Boburnoma”dagi “ahl” so‘zi ishtirok etgan izofali birikmalarning bir nechtasini ingliz tiliga tarjimalarini tahlil qilish, ularning semantik o‘ziga xosliklarini aniqlash hamda tarjima jarayonida duch kelinadigan qiyinchiliklarni ko‘rib chiqish maqsad qilib qo‘yiladi. Ahli fazl va ahli hunar izofali birikmalarini tarjimalar tahlilini ko‘rib chiqishdan boshlaymiz.

Asliyatdagi matn: ***Аҳли фазл ва аҳли ҳунарга*** *Алишербекча мураббий ва муқаввий маълум эмаским, ҳаргиз пайдо бўлмиш бўлғай* [132-b.].

Tabdilda: *“Фазл аҳли ва ҳунар аҳлига Алишербекчалик мураббий ва ҳомийлик қилган одам дунёда бошқа топилмаса керак”* [133-b.].

Joy Leyden-Erskin tarjimasi: *“There is not upon record in history any man who was a greater patron and protector of* ***men of ingenuity and talent*** *than Ali Sher Beg”* [185-b.]. (Tarixda Alisherbekdan zehn va iste’dod egalariga kattaroq homiy va himoyachi bo‘lgan odam yo‘qdir.”)- **“men of ingenuity”** iborasi “ahli fazl”ni anglatadi. Tarjimonlar ilm ahlini **“ingenuity”** *(ijodkorlik, ixtirochilik)* orqali ifodalagan. Ushbu “men of talent” iborasini esa “ahli hunar”ni ifodalashda qo‘llagan. “Talent” (iste’dod) umumiy ma’noda to‘g‘ri qo‘llanilgan. Tarjimonlar matnda “record in history” degan jumlani ishlatib, Alisherbekning tarixiy unutilmas shaxs ekanligini ifodalaydi. Tarjimaning umumiy ruhiyatini saqlagan.

Susana Beverij versiyasi: *“No such patron and protector of* ***men of parts and accomplishments*** *is known, nor has one such been heard of as ever appearing”* [272-b.]. (“Bunday **aql-zakovat va yutuqlarga ega odamlar** uchun homiy va himoyachi hali hech qachon ma’lum bo‘lmagan va bunday odamning paydo bo‘lishi haqida dong‘i chiqqan emas”) – Beverij **“men of parts and accomplishments”** (aql-zakovat va yutuqlarga ega odamlar) iborasi bilan tafakkur va hunar ahlini ifodalashda qo‘llagan. “Men of parts” iborasi “ahli fazl”ga mos keladi va tafakkur, bilimli shaxslar uchun ishlatiladi. Biroq “parts” so‘zi zamonaviy ingliz tilida kam ishlatiladi va o‘quvchi uchun noaniq tuyulishi mumkin. Ushbu “men of accomplishments” iborasi “ahli hunar”ni ifodalaydi va iste’dod hamda mahoratni anglatadi. Bu “talent” so‘ziga qaraganda kengroq va aniqroq, chunki “accomplishments”, odatda, mahorat bilan erishilgan yutuqlarni anglatadi. Beverij tarjimasi badiiyroq bo‘lib, “is known, nor has one such been heard” iborasi Alisherbekning nodir inson ekanligini kuchli ta’kidlaydi.

Tekston tarjimasi: *“No one is known ever to have been such a patron and encourager of* ***artists*** *as was Ali-Sher Beg. Master Qul-Muhammad, Shaykhi the flutist, and Husayn the lutanist, who are tops on their instruments, gained advancement and reputation through the beg’s patronage and encouragement”* [214-b.]. (Hech kim Alisherbek kabi san’atkorlarga bunday homiylik va rag‘bat ko‘rsatganini bilmaydi. Usta Qul-Muhammad, Shaykhi flutachi va Husayn lutanist, o‘z asboblari bilan eng yuqori darajaga erishgan, va ular bekning homiyligi va rag‘batlantirishi orqali rivojlanish va obro‘ga erishgan) –Tekston matni

---

[2]Зулфиев Я., Жуманова М. Ўзбек тилида “аҳл” сўзининг семантик-грамматик ва услубий хусусиятлари. “ФДУ илмий хабарлари”, илмий журнал, 2005, 1-сон, 42–43-бетлар.

[2] Amonov M. “Boburnoma”dagi izofiy birikmalarning lisoniy tadqiqi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Farg‘ona, 2020.

[3] Amonov M. “Boburnoma”dagi izofiy birikmalarning lisoniy tadqiqi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Farg‘ona, 2020.

[4] Назарова Х. Заҳириддин Муҳаммад Бобир асарлари учун қисқача луғат. Тошкент, “Фан”, 1972, 12-бет.

[7] Исҳоқов Ф. “Бобурнома” учун қисқача изоҳли луғат. Андижон, 2008, 20-бет.

Alisherbekni, ayniqsa, san'atkorlarga homiy sifatida ko'rsatadi. Qul-Muhammad, Shayxi va Husaynning nomlarini keltirib, Alisherbekning xizmatlarini shaxsiy misollarda yoritgan. "Artists" so'zini qo'llab, Teksto n "ahli hunar"ni alohida so'z bilan ifodalab, ularni to'g'ridan to'g'ri san'atkorlar sifatida ko'rsatgan. Tekstonning tarjimasi "ahli hunar"ni ko'proq san'at bilan bog'lagan va ilm-fan ahlini umumiyroq tasvirlagan. Ammo Tekstonning qo'shma iboralar qo'llashi yanada tarjimani aniqroq va yaxshiroq bergan.

Har uch tarjima Alisherbekning fazilat va hunar ahlini qo'llab-quvvatlashini tasvirlaydi. Beverij badiiylik bilan yondashadi. Tekston esa misollar orqali konkretlik qo'shadi. Matnning asosiy ma'nosi – Alisherbekning madaniyat va san'at rivojiga qo'shgan hissasi barcha tarjimalarda saqlanadi.

Keyingi tahlilimiz ahli kuffor va ahli irtidod izofiy birikmalari bo'ladi. Asliyatda: *Bu yurttin ikki ko'chub, Biyona borildi. Biyonag'acha, balki Alvor va Mevotqacha* ***ahli kuffor va ahli irtidod****ning jiyfasi benihoyat yotib edi* (BN;299-b.).

Ushbu jumlada muallif ahli irtidod izofali birikmasi orqali jangda chekinganlarni nazarda tutgan V.Rahmonov tomonidan tuzilgan "Mumtoz asarlar lug'ati"da ahli irtidod izofali birikmasi dindan qaytganlar, maslagidan qaytganlar ma'nosini anglatishi ko'rsatib o'tilgan va Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" asaridan quyidagi bayt misol keltirilgan:

Mustafodin so'ngra ahli irtidod,
Chun xilofatqa ul o'ldi istinod.[1]

Ma'lumki, "Boburnoma"da Zahiriddin Muhammad Boburning boshidan o'tganlari hikoya qilingan, ayniqsa, jang sahnalari ishonarli tasvirlangan. Balki shu sababli ahli irtidod izofiy birikmasi Navoiyda dindan qaytganlar, maslagidan qaytganlar ma'nosini anglatsa, Boburda ushbu so'z murtadlar ma'nosidan tashqari, chekinuvchilar ma'nosini ham anglatadi. AN-NAYM arabcha-o'zbekcha lug'atda irtidod so'zining quyidagi ma'nolari mavjudligi ko'rsatib o'tilgan: 1) chekinish; 2) bekorga chiqish, puchga chiqish, habada bo'lish; 3) murtadlik, xoinlik, qaytganlik; irtidod 'aniddin ارتداد عن الدينdindan qaytish; 4) orqaga qaytish, regress. Ikki tilli lug'atlarda, odatda, izofali birikmaning tarjimasi berilmaydi. Izofali birikma tarkibidagi irtidod so'zining arabcha-o'zbekcha lug'atda ko'rsatib o'tilgan ma'nolaridan bilib olish mumkinki, Navoiy asarlarida qo'llanilagan ma'nosi ham "Boburnoma"da qo'llanilgan ma'nosi ham asliyatda uchraydi. Ahli irtidod إرتداد أهل izofali birikmasi tarkibidagi ahl so'zi hozirgi o'zbek tilida keng qo'llaniladi, biroq eski o'zbek tilida faol iste'molda bo'lgan irtidod so'zi hozirgi o'zbek tilida iste'moldan chiqib ketgan. Mazkur so'zning o'zakdoshlari bo'lgan rad, murtad so'zlari hozirgi o'zbek tilida qo'llaniladi.

Tabdilda: *"Бу жойдан икки манзил юриб, Байанага бордик. Байанага етгунча, ҳатто Алвар ва Мевагача бўлган ерларда кофир ва муртадларнинг ўлиги тўлиб ётарди"* [241-b.]. Murtad so'zidan foydalanilgan, bu ham dindan qaytganlar degan ma'noni ifodalaydi.

Jon Leyden-Erskin tarjimasi: *"From this encampment, the third march brought us to Biana. Immense numbers of* ***the dead bodies of the Pagans and apostates*** *had fallen in their flight, all the way to Biana, and even as far as Alwar and Mewat"* [368-b.]. ("Ushbu turargohdan uchinchi yurishda biz Bayanaga yetib bordik. Bayanagacha, hattoki Alvar va Mewatgacha bo'lgan yo'lda ham qochish vaqtida halok bo'lgan **butparastlar va murtadlarning** jasadlari behisob miqdorda sochilib yotardi") – Tarjimonlar tarjimasi **"immense numbers of dead bodies of the Pagans and apostates had fallen in their flight" (***butparastlar va murtadlarning jasadlari behisob miqdorda sochilib yotardi)* iborasi bilan o'sha paytdagi holatni kuchli aks ettiradi. Ular murdalar tasvirini ma'noli va ta'sirchan qilib bergan. J.Leyden-Erskin "kuffor"ni bevosita **"Pagans"** deb tarjima qilgan. Biroq "Pagans" atamasi "Ahli kuffor"ni qisman ifodalaydi, chunki bu so'z faqat butparastlikni anglatadi. "Apostates": Bu "Ahli irtidod" (dindan qaytganlar)ni to'g'ri aks ettiradi va diniy mazmunini to'liq saqlaydi

Susan Beverij tarjimasi: *"(March 20th) Marching on from that ground, and after halting on two nights, we reached Biana* (Sunday, Jumada 11.17th). ***Countless numbers of the bodies of pagans and apostates who had fallen in their flight, lay on the road*** *as far as Biana, indeed as far as Alur and Miwat"* [577-b.]–("(Mart 20). O'sha yerda ikki tun dam olganimizdan so'ng, biz Bayanaga yetib bordik (yakshanba, Jumadul soniy, 17-kuni). Ularning qochish davomida halok bo'lgan butparastlar va murtadlarning jasadlari behisob miqdorda yo'lda sochilib yotardi, hatto Biyanagacha, Alur va Mivatgacha"). Beverij tarixiy aniqlikni qo'shib, jang sanasini keltiradi va **"countless numbers"** (behisob) iborasi bilan hodisaning keng ko'lamini ta'kidlaydi. Beverijning tarjimasi diniy nuqtai nazardan J.Leyden-Erskin tarjimasiga yaqin. "Ahli kuffor"ning keng ma'nosi qisman saqlangan, "Ahli irtidod" esa to'g'ri aks ettirilgan.

---

[1] Раҳмонов В. Мумтоз асарлар луғати. Тошкент, "Akademnashr", 2019, 95-бет.

Tekston shunday ifodalaydi: *"Marching two kos from this camp we came to Bayana. All the way there, indeed the road all the way to Alwar and Mewat, was strewn with* ***innumerable infidel and apostate corpses****. I made a tour of Bayana."* [387-b.]– ("Ushbu turargohdan ikki kos yurib, biz Bayana shahriga yetib bordik. Yo'lda, hatto Alvar va Mevatgacha, son-sanoqsiz **kofirlar va murtadlarning** jasadlari sochilib yotardi. Men Bayanani aylanib chiqdim"). Tekston "Ahli kuffor"ni "Infidel" (kofir) deb tarjima qilgan. Bu so'z diniy matnlarda, ko'pincha, Islomni qabul qilmagan yoki unga qarshi bo'lganlarni anglatadi. "Infidel" atamasi "Ahli kuffor"ning ma'nosini kengroq qamrab oladi va boshqa ikki tarjimaga qaraganda mosroqdir. "Ahli irtidod"ni "Apostate" deb bergan. Bu ibora yuqoridagi ikki tarjimonlar tarjimalaridagi kabi aniq va to'g'ri.

Tekstonning tarjimasi diniy terminologiyani yaxshiroq aks ettiradi. "Infidel" orqali "Ahli kuffor"-ning ma'nosi, "Apostate" orqali esa "Ahli irtidod" aniq aks ettirilgan.Tekston "strewn with innumerable corpses" (jasadlari sochilib yotardi) iborasi bilan tasvirni yanada dramatiklashtirishga harakat qiladi. Jadvalda ko'radigan bo'lsak:

1-jadval

Asliyat (2002)	Ahli kuffor	Ahli irtidod (dindan qaytganlar)
Tabdil (2008)	Kofir	Murtadlar (dindan qaytganlar)
J.Leyden-Erskin	Pagans (butparastlar)	Apostates (dindan qaytganlar)
S.Beverij	Pagans (butparastlar)	Apostates (dindan qaytganlar)
U.Tekston	Infidels (kofirlar)	Apostates (dindan qaytganlar)

Xulosa qiladigan bo'lsak, maqolamizda "Ahli" bilan bog'langan izofiy birikmalarning tahlili va ularning inglizchadagi tarjimalari o'rganildi. "Boburnoma"da ishlatilgan "ahli fazl", "ahli hunar", "ahli kuffor" va "ahli irtidod" kabi iboralar, tarixiy va madaniy kontekstda o'ziga xos ahamiyatga ega. Tarjimonlar tomonidan bu iboralarning ingliz tiliga qanday talqin qilinishi, har bir tarjimaning semantik xususiyatlari va madaniy farqlari ochib berildi. Jon Leyden-Erskin, Susana Beverij va U.Tekston kabi tarjimonlarning yondashuvlari ularning madaniy va diniy terminlarni qanday aks ettirganini ko'rsatdi. Tahlil natijalariga ko'ra, har bir tarjimon iboralarni saqlash va ifodalashda o'z usullarini qo'llagan, bu esa original matnning ma'nosi va uning tarjimada to'g'ri aks ettirilishiga ta'sir qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1), Amonov M. "Boburnoma"dagi izofiy birikmalarning lisoniy tadqiqi. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Farg'ona, 2020.

(2). Баранов Х. Арабско-руский словарь. Москва, 1985, с. 48.

(3). Beveridge, Anette Susannah. The Babur-nama in English. Emperor of Hindustan Babur. London, 1921, 880 p.

(4). Dictionary of contemporary English. Longman, 2000, 864 p.

(5). Исҳоқов Ф. "Бобурнома" учун қисқача изоҳли луғат. Андижон, 2008, 20-бет.

(6). Leyden John. Memoirs of Zehir-Ed-Din Muhammed Baber. Babur Emperor of Hindustan. London, 1826, 432 p.

(7). Назарова Х. Заҳириддин Муҳаммад Бобир асарлари учун қисқача луғат. Тошкент, "Фан", 1972, 12-бет.

(8). Teshaboyeva Z. "Boburnoma"dagi frazeologik birliklarning inglizcha tarjimalari qiyosiy tahlili. "Tafakkur", Toshkent, 2018.

(9). Teshaboyeva Z. "Boburnoma"ning lisoniy jozibasi ingliz tarjimonlari talqinida. Nodirabegim. Toshkent, 2021.

(10). Thackston Wh.M. The Baburnama. Memoirs of Babur, Prince and Emperor. New York, 1996, 554 p.

(11). Qambarov N. Tarjima transformatsiyalarining lingvokulturologik va kognitiv xususiyatlari. Toshkent, 2019.

(12). Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. 2002, Тошкент, "Шарқ", 336-бет.

(13). Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. "Шарқ", Тошкент. 2014, 74-бет.

(14). Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Т., "Шарқ", 2008, 336-бет.

(15). Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. "Шарқ". Тошкент, 2014.

(16). Зулфиев Я., Жуманова М. Ўзбек тилида "аҳл" сўзининг семантик-грамматик ва услубий хусусиятлари. "ФДУ илмий хабарлари", илмий журнал, 2005, 1-сон, 42–43-бетлар.

(17). https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english

(18). https://www.amazon.com/Baburnama-Memoir-Babur/dp/8129141752

(19). www.uzresearchers.com